Bugungi kunga kelib, O'zbekiston sud tizimida bir qator zamonaviy elektron axborot tizimlari va interaktiv platformalar joriy etilgan bo'lib, ular protsessual jarayonlarning raqamlashtirilishiga xizmat qilmoqda. Xususan, "Adolat" axborot tizimlari majmuasi ishlab chiqilib, fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va iqtisodiy yo'nalishdagi barcha instansiya sudlari faoliyati yagona platforma doirasida integratsiya qilindi.

Sud tizimida "E-XSUD" va "E-SUD" axborot tizimlari, shuningdek, markazlashgan elektron ma'lumotlar bazalari joriy etilgan bo'lib, ular fuqaro va tadbirkorlarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etmoqda:

- sudga onlayn murojaat qilish;

- hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish;
- ish holatini real vaqt rejimida kuzatib borish.

Mazkur imkoniyatlar “my.sud.uz” interaktiv portali orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sud tizimining statistik ma’lumotlari bilan real vaqt rejimida tanishish imkonini beruvchi “stat.sud.uz” sayti ham ishga tushirilgan.

Sud hujjatlarining ijrosini nazorat qilish borasida ham muhim qadamlar tashlangan. Jumladan, Adliya vazirligi huzuridagi Majburiy ijro byurosi bilan hamkorlikda “Sud.ijro.uz” elektron tizimi joriy etilib, u orqali sudlar tomonidan chiqarilgan ijro varaqalari va sud buyrug’i elektron raqamli imzo (ERI) bilan tasdiqlangan holda bevosita majburiy ijro organlariga yuborilishi yo’lga qo’yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to’g’risida”gi Qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, endilikda ijro varaqasi yoki sud buyrug’i sudya tomonidan elektron imzo bilan tasdiqlangan holda yuborilishi mumkin va u qonuniy kuchga ega hisoblanadi (Republic of Uzbekistan, 2001).

Shuningdek, ijro hujjati qabul qilinganligi va ijro ishi qo’zg’atilganligi haqida taraflarga SMS-xabar yoki elektron pochta orqali avtomatlashtirilgan tarzda bildirishnoma yuborish mexanizmi yo’lga qo’yilgan. Ushbu chora-tadbirlar ijro jarayonlarini tezlashtirish, ularning o‘z vaqtida boshlanishi va asossiz kechikishlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

#### *Raqamlashtirishning sud ishlari muddatlariga ta’siri*

O‘zbekiston sud tizimini raqamlashtirish yo’nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar sud ishlarini ko’rib chiqish muddatlariga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Jumladan, “E-SUD” axborot tizimining joriy etilishi fuqarolik ishlari bo’yicha sud amaliyotida ko’rib chiqish muddatlarining qisqarishiga xizmat qilmoqda. Xususan, da’vo arizalarini sud tomonidan ko’rib chiqish jarayonida samaradorlik oshgani kuzatilmoqda. Ilgari fuqarolik ishlari doirasida oddiy talablar asosida chiqariladigan sud buyrug’i bir necha kun davomida tayyorlanardi. Bugungi kunda esa ushbu protsessual hujjatni elektron shaklda bir necha soat ichida rasmiylashtirish imkoniyati yaratilgan. Bu esa ish yuritish muddatlarini sezilarli darajada qisqartirishga yordam bermoqda.

Sud ishlarining tezkor ko’rib chiqilishiga xizmat qilayotgan yana bir muhim omil – onlayn videokonferensaloqa orqali sud majlislarini o’tkazish amaliyotining kengayishidir. Mazkur yondashuv taraflarning sud binosiga kelishiga sarflanadigan vaqtni kamaytiradi, shuningdek, masofadan ishtirok etish imkonini yaratib, sud majlislarini o‘z vaqtida o’tkazishga zamin yaratadi.

Fuqarolik protsessida ham raqamlashtirishning ijobiy ta’siri sezilmoqda. Xususan, ajrim bilan bog’liq protseduralarni videoaloqa vositasida masofadan turib o’tkazishga imkon beruvchi normalar qonunchilikka kiritilgan. Bu esa, ayniqsa, pandemiya va karantin davrida o‘zining dolzarbligini namoyon qildi. Sud jarayonlari to’xtab qolmasdan, masofaviy shaklda davom ettirildi va protsessual muddatlar buzilishining oldi olindi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sud tizimining bosqichma-bosqich raqamlashtirilishi nafaqat sud ishlarining samaradorligini oshirish, balki protsessual muddatlarga rioya etilishini ta’minlashda ham muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq bu jarayonda sudlarning ish hajmi ortib borayotganini ham inobatga olish lozim. So’nggi yillarda fuqarolik sudlariga murojaatlar soni barqaror sur’atlarda oshib bormoqda. Jinoyat ishlari bo’yicha sudlar faoliyatida ham ishlar sonining keskin kamaygani kuzatilmayapti.

Mazkur holat shuni ko’rsatadiki, agar raqamli texnologiyalar joriy etilmagan bo’lganida, sud tizimi protsessual muddatlarga rioya qilishda sezilarli muammolarga duch kelgan

bo'lardi. Elektron ish yuritish tizimlari aynan shunday holatlarning oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, sudyalarning uchun ishlarni ustuvorlik darajasi va ish hajmiga qarab tartiblash, rejalashtirish imkoniyati yaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, ish yuritishda inson omili sababli yuzaga keladigan xatoliklar, kechikishlar va chalkashliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Amaliyotda bunga bir qator misollarni keltirish mumkin. Masalan, sud majlisining bayonnomasi endilikda sud kotibi tomonidan maxsus elektron dastur orqali yuritilmoqda, sudyaga esa ushbu bayonnomani elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash kifoya. Natijada bayonnoma tayyorlashga ketadigan vaqt ancha qisqardi.

Bundan tashqari, sud qarorlarini yozishda ham tayyor andozalardan (shablonlardan) foydalanish amaliyoti kengaymoqda. "E-SUD" tizimi doirasida ayrim toifadagi ishlar uchun namunaviy qarorlar shakllarining mavjudligi sudyaga matnni qayta yozish zaruriyatini kamaytiradi va shunday yo'sinda sud qarorlarini tayyorlashga ketadigan vaqtni qisqartiradi. Shu tariqa, raqamlashtirish nafaqat sudyalarning ishini yengillashtirmoqda, balki sud yurituvining ichki jarayonlarini tizimli va aniq tartibga solish orqali protsessual muddatlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlayapti.

*Sud tizimini raqamlashtirish jarayonida uchrayotgan muammolar va kamchiliklar.* Sud tizimida raqamlashtirish jarayoni protsessual muddatlarga rioya etish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa-da, amaliyotda bu yo'nalishda bir qator muammo va kamchiliklar ham mavjudligi kuzatilmoqda. Ularni quyidagi asosiy to'rt guruhga ajratish mumkin.

*Birinchidan, texnik infratuzilma bilan bog'liq muammolar.* Bugungi kunda barcha sud organlari zamonaviy kompyuter texnikasi, yuqori tezlikdagi internet va barqaror tarmoq bilan to'liq ta'minlangan, deb aytish qiyin. Aksincha, ayrim olis hududlardagi tumanlar sudlarida internet tezligining pastligi, videokonferensaloqa sifatsizligi, texnik vositalarning eskirgani kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu sud majlislarining o'z vaqtida o'tkazilmasligiga, ayrim hollarda esa umuman bekor qilinishiga sabab bo'lmoqda. Natijada protsessual muddatlarning buzilishi xavfi yuzaga keladi.

*Ikkinchidan, inson resurslari va raqamli ko'nikmalar masalasi.* Sud tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, ayniqsa, sudyalarning va sud kotiblari zamonaviy raqamli texnologiyalarni to'liq va samarali qo'llay oladigan darajada emaslar. Bu esa yangi tizimlarga moslashuvni sekinlashtiradi. Raqamlashtirishdan kutilayotgan samaraga erishish uchun kadrlar o'rtasida doimiy ravishda o'qitish, malaka oshirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Aks holda, elektron tizimlardan foydalanish bo'yicha xatoliklar yuzaga keladi va bu sud ishlarining kechikishiga olib keladi.

*Uchinchidan, huquqiy tartibot va normativ-huquqiy baza muammolari.* Ayni paytda fuqarolik protsessida elektron hujjatlar, ayniqsa, elektron dalillar bilan bog'liq normalar to'liq ishlab chiqilmagan. Ularni rasmiy tan olish, huquqiy kuchga egaligini baholash, dalil sifatida qabul qilish tartiblari amaliyotda turlicha talqin qilinmoqda. Sudyalarning bu kabi holatlarda qo'shimcha ehtiyot choralarini ko'rishga, ekspertiza tayinlashga yoki qo'shimcha izohlar so'rashga majbur bo'ladilar. Bu esa, o'z navbatida, ish yuritish muddatining cho'zilishiga olib keladi.

*To'rtinchidan, idoralararo integratsiya darajasining pastligi.* Hozirgi kunda turli davlat idoralari (sud, prokuratura, tergov organlari, Majburiy ijro byurosi va boshqalar) o'rtasida yagona elektron platforma joriy etish ishlari boshlangan bo'lsa-da, bu jarayon to'liq yakuniga yetkazilmagan. Sudlar ba'zi hollarda hali ham rasmiy qog'oz so'rovlar orqali ma'lumot olishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, ayrim davlat organlarining ma'lumotlar bazasi sud tizimi

bilan avtomatik bog'lanmagani sababli sudya zaruriy axborotni olish uchun rasmiy xat bilan murojaat qilishga majbur bo'ladi. Bu esa sud jarayoni davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa bir dolzarb masala – fuqarolar va advokatlarning raqamli tizimlardan foydalana olish darajasidir. Garchi “E-SUD” tizimi orqali onlayn murojaat qilish imkoniyati yaratilgan bo'lsa-da, hamma foydalanuvchilar ham bu imkoniyatdan foydalanmayapti. Ba'zi fuqarolar va hatto ayrim advokatlari ham an'anaviy – qog'oz shaklidagi arizalarni topshirishni afzal ko'rishmoqda. Shuningdek, “E-SUD” orqali topshirilgan da'vo arizalarining elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmaganligi yoki noto'g'ri to'ldirilganligi sababli sud tomonidan qabul qilinmasligi holatlari ham kuzatilmoqda. Natijada hujjatlarni qayta yuborish zarurati yuzaga keladi va bu esa keraksiz vaqt yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Shu boisdan sud tizimi ishtirokchilari – sudyalari, sud xodimlari, advokatlari va fuqarolar o'rtasida raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha tizimli o'rgatish, tushuntirish va ko'nikma berish ishlarini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, raqamlashtirishning ijobiy imkoniyatlari to'liq ish bermasligi mumkin.

Sud jarayonlarida protsessual muddatlarning buzilishiga olib keluvchi muhim omillardan yana biri – inson omiliga doir yondashuvlarning o'zgartirilmagani va sud amaliyotida an'anaviy usublardan voz kechishga bo'lgan qarshilikdir. Garchi sud tizimida elektron platformalar joriy etilgan bo'lsa-da, ba'zi holatlarda sudyalari va sud xodimlari eski ish yuritish shakllarini saqlab qolmoqda. Masalan, taraflarga qog'oz shaklidagi xabarnomalarni yuborish, ish materiallarining qog'oz nusxasini majburiy tartibda talab qilish holatlari hanuzgacha kuzatilmoqda.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga 2021-yilda kiritilgan muhim o'zgartirishlarga ko'ra, fuqaro ishlari elektron shaklda shakllantirilishi va yuritilishi mumkin (Republic of Uzbekistan, 2018). Ushbu tartibga ko'ra, ish doirasidagi barcha hujjatlar elektron shaklda taqdim etiladi, sud qarorlari va boshqa protsessual hujjatlar sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi nazarda tutilgan.

Shunga qaramay, amaliyotda ayrim sudlar tomonidan ish yurituvining qog'oz shaklda olib borilishi holatlari saqlanib qolmoqda. Bu esa parallel ish yuritish – ya'ni bir vaqtning o'zida ham elektron, ham qog'oz shakldagi jarayonlarni olib borishga sabab bo'lmoqda. Natijada nafaqat ish yuritish jarayoni cho'ziladi, balki protsessual muddatlarning buzilish xavfi ham ortadi.

Xususan, D.Y. Xabibullayev (2024) o'zining “Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi 1.3-paragrafida fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish istiqbollari yoritgan, O.Sh. Pirmatov (2022) esa fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish va virtualizatsiya qilish masalalarini tadqiq etgan. Biroq yuqoridagi tadqiqot ishlarida fuqarolik sud ishlarini yuritishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning protsessual xususiyatlari kompleks tarzda o'rganilmagan.

Umuman olganda, O'zbekiston sud tizimini raqamlashtirish jarayonida protsessual muddatlarga rioya etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar kompleks xarakterga ega bo'lib, ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

– texnik omillar – infratuzilmaning yetarli emasligi, internet sifati, uskuna va dasturiy vositalarning eskirganligi;

– tashkiliy omillar – xodimlarda raqamli ko'nikmalarning yetarli emasligi, idoralararo integratsiyaning sustligi, sudyalari va sud xodimlarining yangi texnologiyalarga moslashishidagi sustkashlik;

– huquqiy omillar – elektron hujjatlar va dalillar bilan ishlash tartibining to‘liq huquqiy bazasi shakllanmagani, normativ-huquqiy tafovutlar mavjudligi;

– ijtimoiy-psixologik omillar – fuqarolar va hatto huquqshunoslarning an’anaviy ish yuritishga nisbatan afzal ko‘rishlari, raqamli xizmatlarga nisbatan ishonchning pastligi.

Shu bois sud tizimida raqamlashtirish jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va protsessual muddatlarga qat’iy rioya etilishini ta’minlash uchun yuqoridagi omillar har tomonlama tahlil qilinishi, ularga qarshi tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Kelgusi bo‘limda ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar bayon etiladi.

Sud tizimining raqamlashtirilishi – zamonaviy davlat boshqaruvida samaradorlikni ta’minlash, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va eng asosiysi, fuqarolarning adolatli sud himoyasiga o‘z vaqtida erishishini kafolatlash yo‘lida muhim qadamlardan biridir. Shu bilan birga, ushbu jarayonning muvaffaqiyati, eng avvalo, protsessual muddatlarga qat’iy rioya etilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq O‘zbekiston Respublikasi sud tizimini raqamlashtirish jarayonida ushbu muddatlarga rioya qilinishiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli va amaliy muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish muhim ilmiy-amaliy masala sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda (Xabibullayev, 2022).

Avvalo, mavjud muammolarni tahlil qilish orqali ularga yechim bo‘la oladigan taklif va tavsiyalarni shakllantirish zarur. Quyida sud tizimini raqamlashtirish doirasida protsessual muddatlarga rioya etishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar izchillik bilan yoritiladi.

Bugungi kunda raqamli sud jarayonining barqaror ishlashi texnik infratuzilmaga bevosita bog‘liqdir. Sud organlarida zamonaviy kompyuter texnikasi, tezkor internet aloqasi va xavfsiz dasturiy ta’minot mavjudligi asosiy shartlardan biridir. Afsuski, ayrim hududlardagi tuman va viloyat sudlarida bu talablar hali to‘liq ta’minlanmagan. Natijada elektron sud majlislari uzilishlar bilan o‘tmoqda yoki umuman amalga oshirilmayapti, bu esa protsessual muddatlarning buzilishiga olib kelmoqda. Shu boisdan, davlat dasturlari doirasida sud organlari texnik bazasini mustahkamlash, zaxira serverlar va muqobil aloqa vositalarini joriy etish zarur. Bu, ayniqsa, texnik nosozliklar sababli yuzaga keladigan muddat buzilishlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faqat texnik vositalar mavjudligi bilangina cheklanmaydi. Bunda inson omilining roli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Sudyalar, sud xodimlari hamda advokatlarining elektron tizimlar bilan ishlash ko‘nikmalari yetarli bo‘lmasa, mavjud tizimlar o‘z funksional imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ba’zi hollarda sud xodimlari an’anaviy qog‘oz shaklidagi ish yurituviga ortiqcha ishonch bildirib, elektron hujjatlar bilan ishlashdan cho‘chimoqdalar.

Mazkur holatlarni bartaraf etish maqsadida, mutaxassislar uchun elektron sud tizimlari bilan ishlash bo‘yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etilishi, shuningdek, advokatlar va jamoatchilik uchun ko‘rgazmali qo‘llanmalar, video-darsliklar va interaktiv platformalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Elektron sud yurituvining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga 2021-yilda kiritilgan qo‘shimchalar bilan belgilab berilgan bo‘lsa-da, ayrim normativ-huquqiy jihatlar hozirgacha ochiq qolmoqda. Xususan, elektron dalillarni baholash mezonlari, elektron murojaatlarning huquqiy kuchi va texnik nosozlik holatida muddatlarni to‘xtatish mexanizmlari amaliyotda to‘liq ishlab chiqilmagan.

Mazkur holatni bartaraf etish uchun “Elektron sud yurituvi to‘g‘risida” maxsus qonun qabul qilinishi lozim. Ushbu hujjatda “E-SUD”, “my.sud.uz” va boshqa tizimlar orqali amalga oshiriladigan protsessual harakatlarning huquqiy asoslari batafsil yoritilishi, texnik

muammolar sabab yuzaga kelgan holatlar uchun alohida protsessual kafolatlar joriy etilishi kerak (United Nations Development Programme, 2016).

Sud jarayonining tezkor va samarali tashkil etilishi ko'p hollarda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar – prokuratura, tergov organlari, majburiy ijro byuroosi bilan axborot almashishning qanday yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Hozirda ayrim ma'lumotlar qog'oz shaklida so'ralmoqda, bu esa ortiqcha vaqtda kechadigan muloqot shaklida qolmoqda.

Shu munosabat bilan yagona elektron platformani shakllantirish, idoralar o'rtasidagi avtomatik ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish lozim. Masalan, sud qarorining kuchga kirishi bilan avtomatik tarzda ijro byurosiga yuborilishi, tergov jarayonida sud sanksiyalarining masofadan turib elektron tasdiqlanishi kabi imkoniyatlar amaliyotga keng tatbiq etilishi zarur.

Hozirgi "E-SUD" tizimida ish yuritish bosqichlari aks ettirilgan bo'lsa-da, protsessual muddatlarga rioya etilishini avtomatik nazorat qilish tizimi to'liq shakllanmagan. Bu holat ayrim ishlarning cho'zilishiga, sud majlislarining asossiz kechiktirilishiga olib kelmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun "E-SUD" tizimiga avtomatik monitoring moduli joriy qilinishi lozim. Ushbu modul ish bo'yicha qonuniy muddatni kuzatib boradi va muddat tugashiga yaqin bo'lgan hollarda sudya va sud rahbariyatiga avtomatik ogohlantirish yuboradi. Bundan tashqari, muddatlar buzilishi bo'yicha statistik tahlillar yuritilib, bu haqda Oliy Sudga davriy axborot taqdim etilishi ham sud jarayonlarining intizomini oshiradi.

Elektron sud tizimlarining amaliy natijadorligi fuqarolar va advokatlarning bu tizimlardan qay darajada foydalanishiga ham bog'liqdir. Afsuski, ko'pchilik hali-hanuz bu tizimlarga ishonch bildirmayapti, bu esa an'anaviy usublarga qaytishga olib kelmoqda. Shu sababli "E-SUD" va boshqa raqamli platformalarning afzalliklarini ommaga keng tushuntirish zarur. Bunda videoqo'llanmalar, infografik materiallar, yengil tilda yozilgan yo'riqnomalar va mobil ilovalar orqali axborot tarqatish samarali usul bo'lishi mumkin. Elektron shakldagi murojaatga davlat boji bo'yicha chegirmalar joriy qilish esa foydalanuvchilarni raqamli tartibga o'tishga rag'batlantiradi.

Sud tizimini raqamlashtirish orqali protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan texnik, tashkiliy va huquqiy tavsiyalar amalga oshirilsa, nafaqat muddatlarning buzilishi kamayadi, balki fuqarolarning odil sudlovga o'z vaqtida erishish huquqi real kafolatga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, sud tizimining xalq ishonchiga sazovor bo'lishi, adolat va huquqiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik protsessual huquqida protsessual muddatlarning ahamiyati haqida bir necha marta aytib o'tilgan. Sudlar va fuqarolik protsessining ishtirokchilari tomonidan protsessual muddatlarga rioya qilinmasligi turli muammolar va jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mana ulardan ba'zilari:

– *himoya huquqining yo'qotilishi* – ko'pincha sud jarayonlari qat'iy muddatlarga bog'liq va ularga amal qilinmasligi himoya qilish huquqining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fuqarolik protsessi ishtirokchisiga muddat o'tganligi sababli dalillarni taqdim etish yoki apellyatsiya kiritish rad etilishi mumkin;

– *jarimalar va sanksiyalar* – sudlar protsessual muddatlarga rioya qilmaslik uchun jarimalar va sanksiyalar qo'llash huquqiga ega, bu o'z pozitsiyani taqdim etish imkoniyatining yo'qotilishi, tomonlarga jarima solish yoki hatto da'voni rad etishni o'z ichiga olishi mumkin;

– *dalillarning yo'qotilishi* – protsessual muddatlar ko'pincha dalillarni yig'ish va

taqdim etish bilan bog'liq bo'ladi, muddatlarga amal qilinmasligi muhim hujjatlar yoki guvohliklarning sudda qo'llanish imkoniyatining yo'qolishiga olib keladi;

- *cho'zilgan jarayonlar* – muddatlarga amal qilinmasligi uzoq davom etadigan sud jarayonlariga olib keladi;

- *da'voni ko'rib chiqishni rad etish* – agar fuqarolik protsessi ishtirokchilari qonun bilan belgilangan muddatlarga rioya qilmasalar, sud da'voni ko'rib chiqishni rad etishi mumkin, bu esa sud tartibida nizoni hal qilish imkoniyatining yo'qolishiga olib keladi;

- *sud tizimiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi* – muddatlarga rioya qilinmasligi jabrlangan tomonlarda sud tizimiga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keladi, bu esa sudlarning umumiy obro'sining pasayishiga va qonunga bo'lgan hurmatning kamayishiga sabab bo'ladi;

- *apellyatsiya imkoniyatining yo'qolishi* – protsessual muddatlar apellyatsiya berish uchun ham muhim bo'lib, ularga amal qilinmasligi apellyatsiya kiritish va sud qarorini ko'rib chiqish imkoniyatining yo'qolishiga olib keladi.

Umuman olganda, protsessual muddatlarga rioya qilish sud jarayonlarining muhim jihati hisoblanadi va ularga rioya qilinmasligi ishtirokchilar uchun jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligida ularni buzish bilan bog'liq *aniq huquqiy oqibatlar* nazarda tutilgan. Xususan, Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, belgilangan muddatda topshirilmagan da'vo arizalari, shikoyatlar yoki boshqa protsessual hujjatlar, agar ular bilan birga muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma berilmagan bo'lsa, sud tomonidan *ko'rib chiqilmaydi va ariza beruvchiga qaytariladi* (Republic of Uzbekistan, 2018). Bu qoida protsessual intizomni ta'minlash va sud ish yuritishining asossiz cho'zilishining oldini olishga xizmat qiladi (Xabibullayev, 2017).

O'zbekiston qonunchiligida sudga murojaat qilish muddatlarini tiklash faqat *uzrli sabablar mavjud bo'lgan taqdirda* mumkinligi mustahkamlangan. Agar shaxs sudga murojaat qilish muddatini o'tkazib yuborsa va bu kechikish asosli sabablar bilan izohlanmasa, sud tegishli da'vo yoki shikoyatni qabul qilishni rad etish huquqiga ega. Bu yondashuv, jumladan, mehnat nizolari bo'yicha sudga murojaat qilish muddatlariga nisbatan ham qo'llanib, sud himoyasidan foydalanish huquqi bilan protsessual barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra, protsessual muddatni tiklash masalasi sud tomonidan hal etiladi va agar kechikish sabablari uzrli deb topilmasa, sud muddatni tiklashni *rad etish huquqiga ega* (Republic of Uzbekistan, 2018). Ayniqsa, yuqori instansiyalarda (apellyatsiya va kassatsiya bosqichlarida) protsessual muddatlarga nisbatan ehtiyotkor va qat'iy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Sud amaliyotida muddatni tiklash faqat shaxs irodasidan tashqarida yuzaga kelgan, obyektiv va ishonchli holatlar mavjud bo'lgan taqdirda e'tirof etiladi. Bunday holatlarga odatda og'ir kasallik, sog'liqning keskin yomonlashuvi, shaxsning protsessual harakatni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'lishiga olib kelgan favqulodda vaziyatlar kiradi.

Shu bilan birga, fuqarolik protsessida *tortishuvlilik va tomonlarning teng huquqliligi tamoyillarini ta'minlash* maqsadida protsess ishtirokchilari sudning protsessual muddatni tiklashni rad etish to'g'risidagi ajrimidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Bu huquq sud qarorlarining xolisligi va asoslanganligini tekshirish imkonini beradi hamda protsessual kafolatlar tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Protsessual muddatlar buzilishining oldini olishda sudning ishtirokchilarni *sud jarayoni boshlanganligi va keyingi protsessual harakatlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishi* alohida

ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, taraflar sud majlislariga chaqiruv qog'ozlari va boshqa xabarnomalar orqali xabardor qilinadi hamda ular teng protsessual huquqlardan foydalanish va teng protsessual majburiyatlarni bajarish huquqiga ega bo'ladilar. Bu, jumladan, muddatni o'tkazib yuborishga sabab bo'lgan holatlar bilan tanishish va ularga baho berilishida ham tenglikni ta'minlaydi.

Agar sud tomonidan protsessual muddatni uzaytirish yoki tiklash rad etilgan bo'lsa, protsess ishtirokchilari ushbu qarorga nisbatan apellyatsiya shikoyati berish huquqiga egadirlar. Mazkur imkoniyat fuqarolik protsessida tortishuvlilik, tenglik va adolat tamoyillarining real amalga oshirilishini ta'minlab, protsessual muddatlar institutining kafolatlovchi funksiyasini yanada mustahkamlaydi.

### Xulosa

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi sud tizimida raqamlashtirish jarayonlari ("E-SUD", "my.sud.uz", "stat.sud.uz", "sud.ijro.uz" kabi platformalar) sud ishlarini yuritishning shaffofligi va tezkorligini oshirish, sud hujjatlarini rasmiylashtirish hamda ijro jarayonini jadallashtirish orqali protsessual muddatlarga rioya etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, elektron hujjat aylanishi, videokonferensaloqa, shablon qarorlar va elektron bayonnomalar ish yuritishdagi inson omili bilan bog'liq kechikishlarni kamaytirib, muddatlarni boshqarish va nazorat qilishda ijobiy natija bermoqda.

Biroq amaliyot shuni ham ko'rsatadiki, raqamlashtirishning samarasi barcha hududlarda bir xil darajada emas: texnik infratuzilmaning yetishmasligi, internet sifati, xodimlar va foydalanuvchilarning raqamli ko'nikmalari pastligi, idoralararo integratsiyaning to'liq yakunlanmagani hamda elektron hujjatlar va dalillar bo'yicha normativ aniqlikning yetarli emasligi ayrim hollarda protsessual muddatlarning cho'zilishiga sabab bo'layotgan omillar sifatida saqlanib qolmoqda. Eng muhim muammo sifatida ayrim sudlarda parallel (elektron + qog'oz) ish yuritish amaliyoti davom etayotgani, bu esa ortiqcha vaqt sarfi va muddat buzilishi xavfini oshirishi qayd etiladi. Shu bois sud tizimini raqamlashtirish protsessual muddatlarga qat'iy rioya etishni ta'minlashning muhim vositasi bo'lsa-da, uning real natijadorligi quyidagi shartlar bilan bog'liq:

- barcha sudlarda barqaror texnik infratuzilmani yaratish;
- sud xodimlari, advokatlar va fuqarolar uchun tizimli raqamli treninglarni yo'lga qo'yish;
- elektron dalillar va elektron protsessual harakatlar bo'yicha normativ-huquqiy bazani aniqlashtirish;
- idoralararo axborot almashinuvini to'liq integratsiya qilish;
- "E-SUD" tizimiga protsessual muddatlar bo'yicha avtomatik monitoring va ogohlantirish modulini joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlar izchil amalga oshirilsa, raqamli sudlov nafaqat sud ishlarini tezlashtiradi, balki sud qarorlarining barqarorligini mustahkamlaydi hamda protsessual muddatlar buzilishi bilan bog'liq xatolarni sezilarli kamaytirishga xizmat qiladi.

### REFERENCES

1. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2012, December). *Resolution No. 346*. <https://lex.uz>

2. International Commission of Jurists. (2011). *Sud ishini adolatli ko'rib chiqishga oid xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessi: Huquqshunoslar uchun amaliy qo'llanma [International standards on fair trial and the criminal process of the Republic of Uzbekistan: A practical guide for lawyers]*. <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2013/07/Criminal-Process-in-Uzbekistan-Interactive.pdf>
3. Mirziyoyev, Sh. (2025, December). *Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma [Address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan]*. Official website of the President of the Republic of Uzbekistan. <https://www.president.uz>
4. Norma.uz. (2017). *E-SUD elektron sudlov axborot tizimi [E-SUD electronic court information system]*.
5. Pirmatov, O. Sh. (2022). Elektron fuqarolik ishi (E-SUD) tizimida sud ishlarini boshqarish [Management of court cases in the electronic civil case (E-SUD) system]. *Jurisprudence*, 5.
6. President of Uzbekistan. (2012, August). *Decree No. PD-4459*. <https://lex.uz>
7. President of Uzbekistan. (2017, August). *Resolution No. PR-3250*. <https://lex.uz>
8. President of Uzbekistan. (2025, February 12). *Decree No. UP-31*. <https://lex.uz/en/docs/-7696567>
9. Republic of Uzbekistan. (2001, August 29). *Law No. 258-II*. <https://lex.uz/en/docs/26477>
10. Republic of Uzbekistan. (2018, January 22). *Civil Procedural Code of the Republic of Uzbekistan*. <https://lex.uz/en/docs/3517337>
11. Republic of Uzbekistan. (2025, June). *Law No. LRU-1069*. <https://lex.uz>
12. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Statistical indicators on court activities*. <https://stat.sud.uz>
13. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Interactive services portal*. <https://my.sud.uz>
14. United Nations Development Programme. (2016). *"E-SUD" milliy elektron sudlov axborot tizimi: Foydalanuvchilar uchun amaliy qo'llanma [E-SUD national electronic court information system: User guide]*. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/e-sud-milliy-elektron-sudlov-axborot-tizimi-foydalanuvchilar-uchun-amaliy-qollanma>
15. Uzbekistan National News Agency. (2025, September). *Raqamlashayotgan sud tizimi: Adolat sari qo'yilgan eng ishonchli qadam [Digitizing the judicial system: The most reliable step toward justice]*. <https://uza.uz>
16. Xabibullayev, D. Y. (2017). *O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksini takomillashtirish yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar [Some considerations on improving the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]*. In M. M. Mamasiddiqov (Ed.), *Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari [Priority directions for ensuring the rule of law and further reforming the judicial-legal system]* (p. 173). Noshirlik yog'dusi Publ.
17. Xabibullayev, D. Y. (2022). *Fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish istiqbollari: Milliy amaliyot va xorijiy tajriba tahlili [Prospects for digitalization of civil proceedings: Analysis of national practice and foreign experience]*. <https://old.sud.uz/0811-3/>
18. Xabibullayev, D. Y. (2024). *Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari [Procedural problems of civil proceedings]*. (Doctor of Science dissertation). TSUL.

**O'ZBEKISTON  
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL  
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN  
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL  
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.